

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047566>

## TIJORAT BANKLARINING KREDIT OPERATSIYALARI VA KREDIT PORTFELI TAHLILI

**Valikulova Aziza Voxid qizi**

Bank moliya akademiyasi BHAN 2207 tinglovchisi

***Annotatsiya:** Tijorat banklarining faoliyatida kredit operatsiyalari va kredit portfelini tahlili asosiy ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Kredit portfelini tahlilini samarali olib borish banklarning kredit faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Quyida kredit portfelining ahamiyati, uni boshqarish, qonuniy asoslari va statistik tahlili bo'yicha fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** kredit operatsiyalari, kredit portfelini, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, makroiqtisodiy siyosat.*

***Abstract:** In the activity of commercial banks, the analysis of loan operations and loan portfolio is one of the main priorities. Effective analysis of the loan portfolio has a positive effect on the credit activity of banks. Below is an opinion on the importance of the loan portfolio, its management, legal basis and statistical analysis.*

***Key words:** credit operations, credit portfolio, credit policy, financial stability, macroeconomic policy.*

Kredit operatsiyalari tijorat banklarining eng muhim faoliyati hisoblanadi. Kredit jarayonlarini tashkillashtirish darajasi bankning asosiy ishi va uni boshqarish sifatining eng yuqori ko'rsatkichidir. Banklar uchun kreditlar berish foyda keltiruvchi operatsiyadan tashqari asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib ham xizmat qiladi. Ya'ni, har qanaqa iqtisodiy takomillashish bosqichida, hatto tashkilotlarning moliyaviy beqarorligi vaziyatida ham kredit berish to'xtab qilmaydi. Aynan kredit operatsiyalarini va kredit portfelini bankda to'g'ri va oqilona kredit siyosati asosida yurgizish eng katta daromad olish imkoniyatini beradi. Kredit portfelini shakllantirish va portfel sifatini baholash bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Optimal, sifatli kredit portfelini bankning likvidligi va ishonchligiga katta ta'sir qiladi. Bankning ishonchligi ko'pchilik uchun, eng muhimi - omonatchilar bo'lgan va bank xizmatlaridan foydalanadigan aksiyadorlar, korxonalar, aholi uchun muhimdir.

Bankning barqarorligini taminlashda asosiy vosita kredit portfelini sifatini boshqarish maqsadi maqbul holatga, ya'ni optimal kredit portfeliga erishish

hisoblanadi. Xatar va rentabellik darajasi nisbati optimal kombinatsiyasini amalga oshiradigan kredit portfeli optimal kredit portfeli deb ataladi. Kredit portfeli sifati ya'ni tavakkalchilik darajasi va rentabellik holati bilan ajralib turadi. Ularning o'zaro munosabatlarining umumiy shakli quyidagicha: daromad qancha ko'p bo'lsa, xavf ham shuncha yuqori bo'ladi.

Kredit portfeli — barcha kreditlar bo'yicha balans hisobvaraqlari summasi (brutto), banklar tomonidan olinadigan ishlab chiqarish korxonalarini negizida tashkil etiladigan kompaniyalar aktivlariga banklar tomonidan yo'naltiriladigan barcha mablag'lar, shuningdek uch yildan kam bo'lmagan muddatga berilgan lizing xizmatlari summasi.<sup>1</sup> Yuqorida berilgan ta'rifdan bilish mumkinki, umumiy qilib aytganda, optimal kredit portfeli - boshqa barcha kredit maqsadlarini belgilaydigan kreditlash faoliyatining global maqsadi sifatida ko'riladi.

Siyosat bank kredit portfelini vaqti-vaqti bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ro'yxatini belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan kiritilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim.

Tahlil maqsadlari kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosati muvofiqligini ta'minlash va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tadbiri, moliyaviy tahlil, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilish.<sup>2</sup>

Statistik ma'lumotlarga asoslanib tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston bank tizimining kredit portfeli 2023-yil yakuniga ko'ra 471,4 trln. so'mni tashkil etdi, bu 2022 yilning shu davriga nisbatan 21 foizga ko'pdir.

Banklar 2023 yil oxirida 148,62 trln. so'mni jismoniy shaxslarga, bu 2022-yilga nisbatan 47 foizga ko'pdir. 2023-yilda yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hajmi 2022-yilga nisbatan 12 foizga oshib, 322,78 trln. so'mni tashkil etadi.

Markaziy bank jismoniy shaxslarga 58,11 trln. so'm ipoteka kreditlari (o'sish 25%), 44,59 trln. so'm – iste'mol kreditlari (+92%) va 24,52 trln. so'm mikro kreditlar (+67%) ajratildi.

Ta'limga ajratilgan kreditlar 4,74 trln. so'm (+131%) va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar – 16,39 trln. so'mni (+13) tashkil etdi. Kredit tashkilotlari hisoblanmaydigan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar 13 foizga oshib,

<sup>1</sup> <http://lex.uz/docs/-1529317> Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

<sup>2</sup> Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida NIZOM (Yangi tahrirda)

308,76 trln. so‘mga, sindikatlashtirilgan kreditlar - 17 foizga oshib, 5,54 trln. so‘m, lizing va faktoring – 30 foizga – 2,03 trln. so‘mni tashkil etadi.

Yuridik shaxslarga berilgan mikrokreditlar 42 foizga kamayib, 5,28 trln. so‘mni tashkil etadi. Sanoatga 140,15 trln. so‘m (umumiy kredit portfelining 30 foizi), qishloq xo‘jaligi – 47,25 trln. so‘m (10%), transport va aloqa – 34,34 trln. so‘m (7 foiz), savdo va umumiy ovqatlanish – 32,51 trln. so‘mni (7%) tashkil etdi.<sup>3</sup>

#### 1-jadval. Bank tizimi kredit portfeli to‘g‘risida hududlar kesimida ma’lumot<sup>4</sup>

№	Hudud nomi	01.12.2020	01.12.2021	O‘zgarishi	
				summa	foizda
<b>Jami</b>		<b>270 716</b>	<b>320 813</b>	<b>50 096</b>	<b>19%</b>
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7 933	8 479	546	7%
2	Andijon viloyati	12 032	14 074	2 042	17%
3	Buxoro viloyati	11 659	14 863	3 204	27%
4	Jizzax viloyati	9 606	11 128	1 523	16%
5	Qashqadaryo viloyati	10 847	12 285	1 438	13%
6	Navoiy viloyati	8 745	9 329	584	7%
7	Namangan viloyati	9 534	11 267	1 733	18%
8	Samarqand viloyati	14 711	15 995	1 284	9%
9	Surxondaryo viloyati	10 886	12 741	1 854	17%
10	Sirdaryo viloyati	7 864	9 691	1 827	23%
11	Toshkent shahri	128 211	156 747	28 536	22%
12	Toshkent viloyati	16 888	19 649	2 761	16%
13	Farg‘ona viloyati	12 426	13 961	1 535	12%
14	Xorazm viloyati	9 375	10 603	1 228	13%

O‘tgan 2020-2021-yillardagi bank tizimi kredit portfelining hududlar kesimi bo‘yicha berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, barcha hududlar kesimida 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 19% ga oshgan. Hududlar ichida eng katta ulushga ega bo‘lgan hududlar Toshkent shahri 156747, Toshkent viloyati 19649, Samarqand viloyati 15995 summa bilan boshqa hududlarga nisbatan katta kredit portfeli hajmiga ega bo‘lgan. Yillar kesmidagi eng katta o‘shish Buxoro viloyati 27%, Sirdaryo Viloyati 23% va Toshkent shahri 22% ga to‘g‘ri kelgan.

<sup>3</sup> <https://uzdaily.uz/ru/post/83625>

<sup>4</sup> <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/575089/>

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o‘shirishining mo‘tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash bank tizimini isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Kredit portfelining sifat ko‘rsatkichlari asosida kredit berish tamoyillariga muvofiqligini va qarz berish operatsiyalari tavakkalchilik darajasi, berilgan likvidlilik istiqbollari baholash mumkin. Yuqoridagi keltirilgan fikrlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, har qanday bankda kredit portfelining holati va portfel sifati baholash doimiy ravishda amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Коваленко Сергей Борисович, Швейкин Игорь Евгеньевич Кредитный портфель банка и его роль в предотвращении кредитного риска // Промышленность: экономика, управление, технологии. 2019. №1 (75). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreditnyy-portfel-banka-i-ego-rol-v-predotvrascheniikreditnogo-riska>.
2. Омонов А.А., Қоралиев Т.М “Пул ва банклар” Дарслик. Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019 й. – 461 б.
3. <http://lex.uz//docs/-1529317> Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida
4. Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida NIZOM (Yangi tahrirda)
5. <https://uzdaily.uz/ru/post/83625>
6. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/575089/>